Science and innovation research newsletter
scientific methodological journal
2026 / №-1
ngmpublication.uz



TA’LIM JARAYONIDA O‘QITUVCHI VA TALABALAR O‘RTASIDAGI DESTRUKTIV NIZOLARNING ASOSLARI

Tojiboyeva Gulxumor Raxmonjonovna
Andijon Davlat Universiteti
Umumiy psixologiya kafedrasi professori, PhD

Amurshayeva Gulzodaxon Mirzajamshid qizi
“Amaliy psixologiya” mutaxassisligi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim jarayonida o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida yuzaga keladigan destruktiv nizolarning mazmun-mohiyati, kelib chiqish sabablari hamda ularning ta’lim sifati va tarbiyaviy muhitga ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, nizolarning psixologik-pedagogik omillari, muloqot jarayonidagi kamchiliklar, shaxslararo munosabatlardagi ziddiyatlar va ularni keltirib chiqaruvchi ichki hamda tashqi omillar yoritib berilgan. Tadqiqot davomida destruktiv nizolarni oldini olish, ularni konstruktiv yo‘nalishga o‘tkazish hamda o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida sog‘lom psixologik muhitni shakllantirishning samarali usullari va mexanizmlari asoslab berilgan. Mazkur tadqiqot natijalari ta’lim muassasalarida nizoli vaziyatlarni boshqarish va pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: Ta’lim tizimi, globallashuv, konfliktlar, o’qituvchi, talaba, ijtimoiy moslashuv, pedagog.

Annotation: This article analyzes the essence, causes of destructive conflicts between teachers and students in the educational process, and their impact on the quality of education and the educational environment. It also highlights the psychological and pedagogical factors of conflicts, shortcomings in the communication process, conflicts in interpersonal relationships, and the internal and external factors that cause them. During the study, effective methods and mechanisms for preventing destructive conflicts, transferring them to a constructive direction, and forming a healthy psychological environment between teachers and students were substantiated. The results of this study serve to manage conflict situations in educational institutions and increase the effectiveness of pedagogical activities.

Keywords: Education system, globalization, conflicts, teacher, student, social adaptation, teacher.

Аннотация: В данной статье анализируются сущность и причины деструктивных конфликтов между учителями и учениками в образовательном процессе, а также их влияние на качество образования и образовательную среду. Также освещаются психолого-педагогические факторы конфликтов, недостатки в коммуникационном процессе, конфликты в межличностных отношениях, а также внутренние и внешние факторы, их вызывающие. В ходе исследования обоснованы эффективные методы и механизмы предотвращения деструктивных конфликтов, их перенаправления в конструктивное русло и формирования здоровой психологической среды между учителями и учениками. Результаты исследования служат для управления конфликтными ситуациями в образовательных учреждениях и повышения эффективности педагогической деятельности.

Ключевые слова: Система образования, глобализация, конфликты, учитель, ученик, социальная адаптация, преподаватель.

Kirish.

Dunyo miqyosida ta`lim tizimini zamonaviylashtirish, pedagog va talaba o`rtasidagi samarali hamkorlik munosabatlarini kuchaytirish hamda ta`lim jarayonida paydo bo`ladigan nizoli jarayonlarni oldini olish va bartaraf etish dolzarb ilmiy muammolardan biri sanaladi. Hozirgi globallashuv zamonida ta’lim muassasalarida sog‘lom psixologik muhitni yaratish, shaxslararo munosabatlarni barqarorlashtirish va destruktiv konfliktlarning salbiy oqibatlarini kamaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi nizolar nafaqat o‘quv faoliyatining samaradorligiga, balki shaxsning emotsional holati, ijtimoiy moslashuvi va kasbiy shakllanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois xalqaro ilmiy izlanishlarda konfliktlarning psixologik tabiati, ularni erta aniqlash va profilaktika qilish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim yo‘nalish sifatida o‘rganilmoqda. nizoli vaziyatlarning oldini olish bo‘yicha samarali tavsiyalar ishlab chiqilishi bilan izohlanadi.

Respublikamizda ta’lim sohasini huquqiy jihatdan mustahkamlash masalasi davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir shaxsning ta’lim olish huquqi kafolatlangan bo‘lib, davlat uzluksiz ta’lim tizimi hamda uning turli shakllari va turlarini rivojlantirishni ta’minlashi belgilab qo‘yilgan. Bu esa ta’lim muhitida faqat bilim berish emas, balki shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy moslashuv va sog‘lom munosabatlarni shakllantirish masalalariga ham yuksak ahamiyat berilayotganini ko‘rsatadi. Shundan kelib chiqib, o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida yuzaga keladigan destruktiv nizolarni kamaytirish masalasi ham ta’lim huquqini ro‘yobga chiqarishning tarkibiy qismi sifatida baholanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Respublikamiz olimlari tomonidan pedagogik muloqot, kasbiy kompetentlik, emotsional zo‘riqish hamda stress holatlarining psixologik xususiyatlarini o‘rganish borasida muhim ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Jumladan, E.G‘. G‘oziyev, M.G. Davletshin, M. N. Mahmudova, A. Tursunov, S. M. To‘ychieva va V.M. Karimova kabi mutaxassislar ta’lim jarayonidagi shaxslararo munosabatlar hamda pedagogik muloqotning nazariy asoslarini shakllantirishga sezilarli hissa qo‘shganlar. N.A. Muslimov va R.X. Jo‘rayev tadqiqotlarida esa pedagogning kasbiy kompetentligi, uning ta’lim sifati va samaradorligiga ta’sir etuvchi jihatlari ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, Sh.A. Do‘stmuhammedova, N.T. Jamoliddinova va X.X. Abdurahmonovlarning ishlarida emotsional charchash, ruhiy zo‘riqish va stress omillarining pedagogik faoliyatga ko‘rsatadigan ta’siri atroflicha tahlil qilingan. Amaliy korreksiya va psixologik yordam masalalari esa D.A. Xolmatova hamda D. Islomova tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Natija va nazariya.

Konstruktiv xulq - atvor shaxsning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabatlarni samarali tashkil etishga, mojarolarni ijobiy hal qilishga, o‘z- o‘zini boshqarish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyatidir. Bu tushuncha quyidagi asosiy xususiyatlarni o‘z ichiga oladi:

ijobiy ijtimoiy munosabatlarni barpo etish;

mojarolardan qochish yoki ularni konstruktiv hal qilish;

hissiy barqarorlik va empatiya;

shaxsiy rivojlanish uchun intilish. Talabalik davridagi konstruktiv xulq - atvor shakllanishiga quyidagi omillar ta’sir qiladi:

Ijtimoiy muhit: Talabalar o‘qish joyidagi jamoadan, o‘qituvchilardan va do‘stlaridan o‘rnak oladilar. Ijobiy ijtimoiy muhit konstruktiv xulq-atvorni rivojlantirishga yordam beradi.

Shaxsiy xususiyatlar: Talabaning xarakter xususiyatlari, o‘z - o‘zini boshqarish ko‘nikmalari va hissiy barqarorligi jarayonni belgilaydi.

Oilaviy ta’sir: Oila shaxsning birinchi ijtimoiylashuv muhitidir. Talabalar oiladagi konstruktiv muhitni o‘z xulq-atvoriga ko‘chiradilar.

Ta’lim jarayoni: Ta’lim muassasasidagi tarbiya va ta’lim usullari, mashg‘ulotlar mazmuni, shuningdek, talabaning o‘zlashtirgan qadriyatlari konstruktiv xulq-atvorni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Psixologiyada konstruktiv xulq-atvor shakllanishini quyidagi yondashuvlar orqali tushuntirish mumkin:

Kognitiv yondashuvda talabalar muammolarni hal qilish uchun ijobiy fikrlash strategiyalarini qo‘llashni o‘rganadilar.

Behavioristik yondashuvda o‘rganish va kuzatish orqali talabalar konstruktiv xulqatvorni egallaydilar.

Gumanistik yondashuvda shaxs o‘z qobiliyatlarini rivojlantirish va o‘zini anglash orqali konstruktiv xulq-atvorni shakllantiradi. Quyidagi jadval talabalar konstruktiv xulq - atvorini shakllantirishga ta'sir qiluvchi asosiy ijtimoiy - psixologik omillarni tasvirlaydi:

Talabalar konstruktiv xulq - atvorini shakllantirishga ta'sir qiluvchi asosiy ijtimoiy - psixologik omillar

№	**Omillar**	**Tavsifi**	**Ta'sir darajasi**	**Shakllantirish yo‘llari**
1	Ijtimoiy muhit	Talabaning o‘qish muhitida o‘zini erkin va qulay his qilishi.	Yuqori	Ijobiy muhit yaratish jamoaviy ishlarni qo‘llab-quvvatlash.
2	Oilaviy ta’sir	Oiladagi munosabatlar, tarbiya usullari va oilaviy qadriyatlar.	Yuqori	Oilaviy treninglar, ota-onalarni tarbiya jarayoniga jalb qilish
3	Ta’lim jarayoni	O‘quv rejasi, tarbiyaviy ishlar, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi munosabatlar.	Yuqori	Interfaol metodlarni qo‘llash, ijobiy munosabatlarni rivojlantirish.
4	Shaxsiy xususiyatlar	Talabaning o‘z-o‘zini anglash, hissiy barqarorlik, stressga bardoshli bo‘lish ko‘nikmalari.	O‘rtacha	Psixologik treninglar, motivatsiya ishlari.
5	Do‘stlar va tengdoshlar	Tengdoshlari bilan o‘zaro munosabatlar va o‘zini ijtimoiy muhitda tutishi.	O‘rtacha	Jamoaviy faoliyat, ijtimoiy loyihalarda ishtirok.
6	Shaxsiy rivojlanish motivlari	Talabaning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlari va o‘z ustida ishlashga bo‘lgan intilishi.	Yuqori	Individual maqsadlar belgilash, o‘zo‘zini baholash texnikalari.

Ushbu jadval konstruktiv xulq - atvor shakllantirishda asosiy diqqatni qaratish kerak bo‘lgan jihatlarni tizimli yondashuv asosida o‘rganishga imkon beradi. Xulq-atvorning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari:

- Ijtimoiylashuv: Shaxs jamiyatdagi normalar va qadriyatlarni o‘zlashtiradi, bu esa ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo‘ladi.

- Empatiya: Boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish va ularga mos ravishda munosabatda bo‘lish.

- Moslashuvchanlik: Turli ijtimoiy sharoitlarga moslashish va o‘z harakatlarini shu holatlarga mos ravishda boshqarish. Mojarolarni hal qilish ko‘nikmalari:

- Mojarolarni konstruktiv usulda yechish qobiliyati.

- Shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyat:

- Motivatsiya va o‘zini anglash: Shaxsning o‘z maqsadlariga erishish uchun ichki turtki va o‘zini anglash darajasi xisoblanadi. Ushbu xususiyatlar konstruktiv xulq-atvorni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi va ta'limtarbiya jarayonida e'tiborga olinadi. Xulosa o‘rnida aytish joizki, inson xulq-atvorining o‘ziga xos shakllanish jarayoni ijtimoiy muhit bilan bog‘liq bo‘lib, turli xil vaziyatlarga nisbatan munosabat bildirishni taqozo etadi. Bunday holatlarda shaxsning individual - tipologik xususiyatlari nizoda xulq – atvor strategiyasini tanlashga ta'sir qiladi. Nizolarni ongli ravishda tahlil qilish va nizoli tomonlarning o’z o’rnini tushuntirish orqali inson o’zini – o’zi sezilarli darajada anglab yetadi va ichki hayotning ko'plab xususiyatlarini tushunishga yordam beradi.

Tadqiqotning amaliy qismi hisoblangan tajriba - sinov ishlari Qo‘qon universiteti Andijon filialining “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishida tahsil olayotgan 90 nafar 1 - kurs talaba qizlarda 2024 – 2026-yillar davomida olib borildi. Tajriba - sinov ishlarini tashkil etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad - o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi destruktiv nizolarning psixologik tabiatini aniqlash hamda ishlab chiqilgan korreksion dasturning samaradorligini amaliyotda sinab ko‘rishdan iborat.

90 nafar 1 - kurs talaba-qizlarining demografik ko‘rsatkichlari nizolarning kelib chiqish manbalarini tahlil qilishda fundamental ahamiyatga ega. Biz respondentlarni yashash hududi, oilaviy holati va ijtimoiy kelib chiqishi bo‘yicha tabaqaladik.

1-Jadval. Respondentlarning ijtimoiy - demografik tavsifi (n=90)

№	Tahlil mezonlari	Ko‘rsatkichlar	Miqdor (nafar)	Foiz (%)
1	Yosh tarkibi	17–19 yosh	78	86,6%
		20–22 yosh	12	13,4%
2	Yashash hududi	Shahar (markaz)	46	51,1%
		Qishloq (chekka hudud)	44	48,9%
3	Oilaviy holati	Turmush qurmagan	74	82,2%
		Turmush qurgan	16	17,8%
4	Yashash sharoiti	Ota-onasi bilan	52	57,8%
		Ijarada yoki TTJda	38	42,2%

V.V. Boyko metodikasi asosida “Muloqotdagi emotsional to‘siqlar”ni aniqlash usuli shaxsning muloqot jarayonida yuzaga keladigan emotsional to‘siqlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, u kommunikativ faoliyatga salbiy ta’sir etuvchi psixologik omillarni o‘rganish imkonini beradi. Ushbu usul orqali respondentning hissiy boshqaruv darajasi, muloqotdagi ichki to‘siqlari, shubha va ishonchsizlik tendensiyalari hamda emotsional yopiqlik darajasi aniqlanadi.

Savollar majmuasi shaxsning turli emotsional holatlarini aks ettiruvchi vaziyatlarni qamrab oladi. Jumladan, muloqot paytida hissiyotlarni nazorat qila olmaslik, yangi muhitda



noqulaylik his qilish, suhbatdoshga nisbatan ishonchsizlik, o‘z tuyg‘ularini yashirishga intilish, haddan tashqari sezgirlik, shuningdek, agressiv yoki yopiq xulq-atvor kabi jihatlar o‘rganiladi. Ushbu savollar orqali shaxsning muloqot jarayonidagi ichki psixologik to‘siqlari aniqlanadi.

Tadqiqotning navbatdagi bosqichida ushbu metodikadan foydalangan xolda 90 nafar birinchi bosqich talabalarida tadqiqotlar o‘tkazildi. Ularning muloqot jarayonida yuzaga keladigan emotsional to‘siqlari to‘rtta asosiy psixologik yo‘nalish bo‘yicha o‘rganildi. Olingan natijalar har bir shkala kesimida foizlarda tahlil qilinib, talabalarning emotsional va kommunikativ xususiyatlari aniqlashtirildi.

Emotsiyalarni boshqarishdagi qiyinchiliklar shkalasi bo‘yicha natijalar shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning 54 foizi hissiy holatini nazorat qilishda ma’lum darajada qiyinchiliklarga duch keladi. Ushbu guruh vakillari muloqot jarayonida tez ta’sirchanlik, keskin javob qaytarish yoki o‘z hissiyotlarini jilovlay olmaslik kabi xatti - harakatlarga moyil ekanini bildiradi. Bu holat ayniqsa nizoli vaziyatlarda yaqqol namoyon bo‘lib, muloqotning konstruktiv yo‘nalishda davom etishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Shu bilan birga, 26 foiz talabalar o‘z emotsiyalarini qisman nazorat qila olishini bildirgan, ya’ni ular ayrim vaziyatlarda hissiy reaksiya ustidan nazoratni yo‘qotishi mumkin. Qolgan 20 foiz respondentlar esa hissiy barqarorlikka ega bo‘lib, muloqotda o‘zini tuta olish darajasi yuqori ekanini ko‘rsatdi. Mazkur natijalar shuni anglatadiki, birinchi bosqich talabalarida emotsional boshqaruv ko‘nikmalari hali to‘liq shakllanmagan bo‘lib, bu ularning ijtimoiy moslashuv jarayoni bilan chambarchas bog‘liq.

Muloqotdagi qo‘rquv va ichki hadik shkalasi bo‘yicha tahlil natijalari talabalar orasida ijtimoiy xavotir va ichki hadik mavjudligini ko‘rsatdi. Respondentlarning 49 foizi auditoriyada javob berish, savol berish yoki o‘qituvchi bilan muloqot qilishda noqulaylik his qilishini bildirgan. Bu esa ularning ijtimoiy faoliyatda to‘liq ishtirok etishiga to‘sqinlik qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.


Bundan tashqari, 31 foiz talabalar bunday holatni faqat ayrim vaziyatlarda his qilishini qayd etgan. Qolgan 20 foiz respondentlar esa muloqotda o‘zini erkin tutishini va ichki qo‘rquvni deyarli sezmasligini bildirgan.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, birinchi bosqich talabalari orasida muloqotdagi xavotir darajasi o‘rtacha-yuqori bo‘lib, bu ularning yangi muhitga moslashish bosqichida ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Muloqotdagi xavotirning yuqori va o‘rtacha darajada bo‘lishi Spilberg nazariyasiga ko‘ra yangi ijtimoiy muhitga moslashish jarayonida tabiiy xolat xisoblanadi.

Shubhalanish va negativ interpretatsiya tendensiyasi shkalasi bo‘yicha olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning 47 foizi muloqot jarayonida boshqalarning harakatlarini salbiy talqin qilishga moyil. Ular ko‘pincha yashirin ma’no izlash, shubhalanish yoki suhbatdoshning xatti-harakatlarini noto‘g‘ri talqin qilishga moyillik bildiradi. Shu bilan birga, 33 foiz talabalar bunday xususiyatlar faqat ayrim vaziyatlarda namoyon bo‘lishini bildirgan. Qolgan 20 foiz respondentlar esa boshqalarga nisbatan ishonchli va ochiq munosabatni saqlashga moyil ekanini ko‘rsatdi. Ushbu natijalar shuni anglatadiki, talabalar orasida ishonchsizlik elementi ma’lum darajada mavjud bo‘lib, bu kommunikativ muhitda noto‘g‘ri tushunishlar va ziddiyatlarning yuzaga kelishiga sabab

bo‘lishi mumkin. Boshqalarning xatti xarakatlarini salbiy talqin qilish tendensiyasi esa Harold Kelley tomonidan ishlab chiqilgan atribusiya nazariyasi bilan tushuntiriladi.

Emotsional yopiqlik shkalasi bo‘yicha talabalarning o‘z his - tuyg‘ularini ifoda etish darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Natijalarga ko‘ra, respondentlarning 51 foizi o‘z ichki kechinmalarini boshqalarga ochiq ifoda etmaslikka moyil. Bu ularning muloqotda samimiylikdan ko‘ra masofa saqlashni afzal ko‘rishini anglatadi. Bundan tashqari, 29 foiz talabalar ayrim vaziyatlarda o‘zini yopiq tutishini bildirgan. Qolgan 20 foiz respondentlar esa emotsional jihatdan ochiq va erkin muloqotga kirishishini ko‘rsatgan.



*1-rasm. V.V. Boykoning “Muloqotdagi emotsional to‘siqlar”ni aniqlash metodikasi natijalari (n= 90 nafa***r)**

Mazkur natijalar shuni ko‘rsatadiki, talabalarda emotsional yopiqlik elementi yetarlicha namoyon bo‘lib, bu ularning ijtimoiy aloqalarini cheklashi va muloqot samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Natijalarga ko‘ra, respondentlar orasida eng yuqori ko‘rsatkich emotsiyalarni boshqarishdagi qiyinchiliklar 54%i va emotsional yopiqlik 51%i talabalarda kuzatilgan. Bu talabalar hissiy jihatdan barqarorlik hali to‘liq shakllanmaganini ko‘rsatadi. Shuningdek, muloqotdagi qo‘rquv 49%i va shubhalanish 47%i ham sezilarli darajada namoyon bo‘lib, bu holat talabalar ijtimoiy moslashuv jarayonida ekanini bildiradi.

Umuman olganda, barcha shkalalarda o‘rtacha va yuqori ko‘rsatkichlar ustunligi talabalarda emotsional va kommunikativ to‘siqlar mavjudligini tasdiqlaydi.

V.V. Boyko metodikasi natijalari talabalar muloqotida emotsional to‘siqlar sezilarli darajada mavjud ekanini yanada aniqlashtirdi. Xususan, ko‘pchilik respondentlar o‘z hissiyotlarini boshqarishda qiyinchiliklarga duch kelishini bildirgan. Bundan tashqari, muloqot jarayonida ichki hadik va qo‘rquv hissi mavjudligi, ayniqsa rasmiy vaziyatlarda o‘zini erkin tutish qiyinligi kuzatildi. Shubhalanish va boshqalarning xatti-harakatlarini salbiy talqin qilishga moyillik ham ma’lum darajada namoyon bo‘ldi. Emotsional yopiqlik esa talabalarning muhim qismi o‘z ichki kechinmalarini oshkor etmaslikka moyilligini ko‘rsatdi. Ushbu omillar muloqot samaradorligini pasaytirib, nizoli vaziyatlarning yuzaga kelish ehtimolini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmedova M. Pedagogik konfliktologiya. - Toshkent: Donishmand ziyosi, 2020. - 304 b.

2. Андреева Г. М. Социальная психология: учебник. - М.: Аспект Пресс, 2003. - 363 с.
3. Анцупов А. Я., Шипилов А. И. Конфликтология: учебник для вузов. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2000. - 551 с.
4. Bandura A. Social Learning Theory. - New York: Prentice Hall, 1977. - 247 p.
5. Бодалев А. А. Личность и общение. - М.: Педагогика, 1983. - 272 с.
6. Boyko V. V. Emotsional to‘siqlar va muloqot psixologiyasi. - СПб.: Питер, 1996. - 256 с.
7. Davletshin M. G. Umumiy psixologiya. - Toshkent: O‘qituvchi, 2002. - 512 b.
8. Davletshin M. G. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. - Toshkent: TDPU, 2004. - 300 b.